

PAREMIOLOGIK LINGVOKULTURTEMALARDA PAZANDACHILIK NOMLARI

¹*Samandarova Barno*, ²*Akbarjon Xasanov*

¹*Namangan davlat universiteti Lingvistika (O'zbek tili) 2-kurs magistranti*

²*Qo'qon davlat pedagogika instituti o'zbek tili kafedrasida dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi*

¹*E-mail: samandarovabarno389@gmail.com*

Tel: +998996095282

Annotatsiya: Maqolada paremiologiya va uning lingvokulturologiyadagi ahamiyati haqida ma'lumot beriladi. Paremiologik birliklar tarkibidagi pazandachilik nomlari bilan bog'liq bo'lgan bir qancha lingvokulturtemalarga izoh berilib, ularning lingvokulturologik jihatlari izohlab o'tiladi. Pazandachilik nomlarining paremiologiyadagi o'ziga xos o'zini, ularning o'zbek milliy mentalitetini ochib berishdagi jihatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: paremiologiya, lingvokulturtema, paradigmatic munosabat, frazeologik birliklar, leksik tarkib, etimologiya, semantika

КУЛИНАРНЫЕ НАЗВАНИЯ В ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКОЙ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ ТЕМАТИКЕ

¹*Самандарова Барно*, ²*Акбаржон Хасанов*

¹*Наманганский государственный университет Лингвистика
(узбекский язык) магистрант 2 курса*

²*Коканский государственный педагогический институт доцент кафедры
узбекского языка кандидат филологический наук*

¹*E-mail: samandarovabarno389@gmail.com*

Tel: +998996095282

Аннотация: В статье представлена информация о паремииологии и ее значении в лингвокультурологии. Объясняется ряд лингвокультурологических тем, связанных с приготовлением пищи в рамках паремииологических единиц, и объясняются их лингвокультурологические аспекты. Освещается уникальная роль кулинарных имен в паремииологии, их аспекты в раскрытии узбекского национального менталитета.

Ключевые слова: паремииология, лингвокультурная тематика, парадигматические отношения, фразеологизмы, лексическое содержание, этимология, семантика.

CULINARY NAMES IN PAREMIOLOGICAL LINGUOCULTURAL THEMES

¹Samandarova Barno, ²Akhbarjon Khasanov

¹Namangan State University Linguistics (Uzbek language)

²nd year master's student

²Associate Professor of the Department of Uzbek Language, Candidate of Philological Sciences, Kokand State Pedagogical Institute

¹E-mail: samandarovabarno389@gmail.com

Tel: +998996095282

Annotation: The article provides information about paremiology and its importance in linguocultural studies. A number of linguocultural themes related to cooking within the paremiological units are explained and their linguocultural aspects are explained. The Unique role of culinary names in paremiology, their aspects in revealing th Uzbek national mentality are highlighted.

Key words: lexical-semantic groups, linguocultural theme, paradigmatic relationship, phraseological units, lexical content, etymology, semantics

KIRISH

Paremiologiya ma'lum bir tildagi avloddan avlodga og'zaki shaklda ko'chib yuruvchi, ixcham va sodda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo'lgan maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar maqol, matal, aforizm kabi hikmatli iboralar — palemalar tizimini o'rganadigan fan sohasi sanaladi. Palemalar avloddan avlodga faqat og'zaki holdagina o'tib kelganligi, xalq og'zaki ijodining mahsuli bo'lganligi uchun adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti hisoblanadi, chunki ularning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi Shu bilan bir qatorda ular so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish obyekti hisoblanadi. Palemalarni to'plash, o'rganish Mahmud Koshg'ariy (“Devonu lug'otit turk”) va Gulxaniy (“Zarbulmasal”) zamonlaridan to hozirgi kunlargacha davom etib kelmoqda. Bilamizki, til har bir xalqning ma'naviyatini, qadriyatini va o'ziga xos jihatlarini ifodalashda muhim omil sanaladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maqollarning lingvokulturologik sifatlariga to'xtalgan holda shuni aytish mumkinki, maqollarni o'rganishda bevosita tilni va o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bu tabiiy holdir. Tilda mavjud bo'lgan leksema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda ishtirok etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati aks etadi. Haqiqatdan ham til va ma'daniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlanadi. U maqollarni o'rganishda bevosita tilni va o'sha xalqning madaniyatini o'rganish bu tabiiy hol deb hisoblaydi. Tilda mavjud

bo'lgan sistema o'sha xalqning turmush tarzidan ya'ni xalq tilidan kelib chiqqan bo'lib, bu bevosita maqollarda aks etadi va maqollar orqali xalqning madaniyati ochib beriladi. Maqollar folklorshunoslikda janr matnlari sifatida keng o'rganilgan, ularni tilshunoslikda, ya'ni linvokulturologiyada o'rganish endi yo'lga qo'yilmoqda. Pragmatik nuqtayi nazaridan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, maqolda kesatish, yupatish, ogohlantirish kabi ma'nolar ifodalanishi mumkin. Biroq har qanday maqol linvokulturologik tadqiqotning predmeti bo'lavermaydi. Bunda har bir xalqning etnosi, tarixi, madaniyati chambarchas bog'liq maqollarni o'rganish lozim. Maqollarda tarix, kelajak, yoshlik, qarilik, baxt, ilm, taqdir hattoki ilmiy koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarning qisqa va mazmundor aks ettiradi. Tadqiqot ishimizning asosiy qismidan biri bo'lmish pazandachilik nomlarining paremiologik birliklar tarkibida kelishini o'rganish va tadqiq etish maqsadini amalga oshirish uchun maqollar orasidan pazandachilikka oid leksemalar qatnashganlarini izladik. Quyida ulardan namunalar keltirilgan:

1. Arzonning **sho'rvasi** tatimas¹. Ota-bobolar mol xarid qilganda eng yaxshi, sifatlisini olish, arzon ekn deb yaroqsiz narsaga pul sarflamaslik kerakligini uqtirgan.
2. Arining zahrini chekmagan – **bolning** qadrini bilmas². Biror narsani qiyinchiliksiz topgan odam uning qadrini bilmaydi.
3. **Arpa-bug'doy osh** ekan, oltin-kumush tosh ekan³. Bu maqol ham xalq rivoyati bilan bog'lanadi. Ushbu maqoldan kelib chiqadigan xulosa shundaki, hamma joyning o'zga yarasha qiyinchiliklari va kerakli jihozlari bo'ladi. Arpa ug'doyning ham o'zni bor, zero uning qimmatini oltin-kumushdan past bo'lasa-da.
4. Arqonga **un** bosilgan, g'alvirga **suv** solingan⁴. Mazkur maqol Afandi latifasi bilan bog'liq bo'lib, odamlardagi qizg'anchilik odatiga bag'ishlangan.
5. Asirlikda **qand-u asal** yegandan, erkinlikda parcha kuygan **non** yaxshi⁵.
6. **Ataladan** suyak chiqibdi⁶. Bu maqolni majozan xasis odamdan biror sahovatli ish chiqib qolsa yoki hech nima bilmaydigan odamdan biror ma'noli fikr chiqib qolsa ishlatamiz.
7. Beli og'rimaganning **non** yeyishini ko'r⁷. Bu maqol o'zi mehnat qilmay boshqalar mehnati evaziga kelgan narsadan foydalanuvchilarga nisbatan ishlatiladi.

¹ Shomaqsudov Sh. , Shorahemdiv Sh. Hikmatnoma O'zbek maqollarining izohli lug'ati. Toshkent. 1990, 19-bet

² O'sha manba , 19-bet

³ Shomaqsudov Sh. , Shorahemdiv Sh. Hikmatnoma O'zbek maqollarining izohli lug'ati. Toshkent. 1990, 20-bet

⁴ O'sha manba, 23-bet

⁵ O'sha manba, 23-bet

⁶ O'sha manba, 24-bet

⁷ O'sha manba, 34-bet

8. Bir anor ming bemorga davob⁸. Nordon anor safroni bosadi, po’sti ich ketishda, ichak kasalliklarida, ko’z kasalliklarida davob sifatida ishlatiladi.
9. Bir boshqoq-bir savat **non**⁹. Bu maqol tag zamirida tejamkorlikka undaydi.
10. Bir yomon **anjir** kesar, ikki yomon zanjir kesar. Ma’nosi bir yomon odamning qo’lidan ko’p ish kelmaydi, ammo ikkitasi har qanday qabohatga tayyor degandir.
11. Bir kun **tuz** ichgan joyga qirq kun salom. Bu maqolda yaxshilik ko’rgan yeringni unutma deyilmoqda.
12. Bir **mayizni** qir kishi bo’lib yebdi¹⁰. Bu maqolda sahiylik, totuvlik xislatlari haqida so’z boradi.
13. Bir odam omoch bilan, yettovlon **cho’mich** bilan. Bu maqolda o’tmishdagi tengsizlik, haq-huquqsizlik o’z aksini topgan.
14. Bir tomchi **suv** chumoliga daryo ko’rinur¹¹. Dangasa, ishyoqmaslaga, ozgina ish ko’p tuyuladiganlarga nisbatan mazah ma’nosida ishlatilgan.
15. Bir savat **tuxumga** bir tepki kifoya¹². Bu maqol bilan qiyindek ko’ringan ish ko’rinishdan shunday, aslida bajarsa yengil ma’nosida ishlatilgan.
16. Bir tovuqqa ham **don** kerak, ham-**suv**¹³. Har bir insonning o’ziga yarasha ehtiyoji bor ma’nosida ishlatilgan.
17. Bir qorin **moyni** bir qumaloq chiritar¹⁴. Bu maqol majozan bir axloqsiz odam butun jamoaning nomiga dog’ tushiradi ma’nosida ishlatiladi.
18. Boy buvamning **oshi** bor, ichi to’la toshi bor¹⁵. Mazkur maqol orqali boylarning o’z-o’zidan kambag’allarga sahovat qilmasligiga ishora bor.
19. Boyning **palovidan** kambag’alning **sho’rvasi** qimmatga tushadi¹⁶.
20. **Bol** yegan og’ziga **baliq** yarashmas¹⁷. Shirin narsa yeb turilganda sho’r yoki achchiq narsani og’iz xohlamaganidek, shirin gaplar aytib turilganda, yomon gaplar quloqqa yoqmasligiga ishora bor.
21. Bor-yo’g’ini bilmayman, **bol** tilaydi tomog’im¹⁸. Sharoitga qaramasdan yaxshi yeyishni xohlovchilarga nisbatan ishlatilgan.
22. Bor **tovog’im**, kel tovog’im, qaytishingda quruq bo’lsang, o’rta yo’lda sin tovog’im¹⁹.
23. Bog’ni boqsang bog’ bo’lar,

⁸ O’sha manba, 40-bet

⁹ O’sha manba, 41-bet

¹⁰ O’sha manba, 42-bet

¹¹ Shomaqsudov Sh. , Shorahemdov Sh. Hikmatnoma O’zbek maqollarining izohli lug’ati. Toshkent. 1990, 45-bet

¹² O’sha manba, 45-bet

¹³ O’sha manba, 45-bet

¹⁴ O’sha manba, 47-bet

¹⁵ O’sha manba, 54-bet

¹⁶ O’sha manba, 55-bet

¹⁷ O’sha manba, 56-bet

¹⁸ O’sha manba, 61-bet

¹⁹ O’sha manba, 62-bet

Botmon dahsar **yog'** bo'lar.

Boqimsiz bog' tog' bo'lar,

Yurak-bag'ring dog' bo'lar²⁰. Bu maqol dehqonchilik bilan bog'liq bo'lib, bog'ni parvarishlashga qaratilgan.

24. **Bug'doy** bo'lsa, o'lchov topiladi²¹. Mazkur maqol har bir narsaning qiyini bo'lsa, osoni topiladi degan ma'noda ishlatiladi.

Maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o'tmish bilan hamnafaslik hissini uyg'otuvchi chaqiriqdir. Maqollarni hayot qomusi, og'zaki ensiklopediya, o'ziga xos badiiy-tarixiy solnomalar ham deyish mumkin. Xalqimizning ko'p asrlar davomida to'plagan boy hayotiy tajribasi son-sanoqsiz maqollarda umumlashgan. Ularda otabobolarimiz bosib o'tgan yo'lni, kechirgan turmushlarini, shodliklari va chekkan azob-uqubatlarini teran mazmunli pand-nasihatlarini, qadimgi davrlarda, o'rta asrlarda va keyingi davrlarda yashagan ajdodlarimizning urf-odatlarini, an'analari haqida ma'lumotlarga egamiz. Maqollar mag'ziga ularni yaratgan xalqning asriy hayoti, dunyoqarashi, urf-odatlarini singib ketgan ekan, maqollarning tarixiy ildizlarini aniqlash, ularning g'oyaviy-tematik mazmunini ochib berish ko'p izlanishni taqozo etadi. Ular ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy rivojlanish yo'llarini, xalqimizning odatiy hayoti, barcha kasb-hunarlarining o'ziga xos tomonlarini, ularda ishlatilgan asbob-uskunalar, har bir kasb egalarining o'ziga xos so'zlarini, falsafiy tushunchalarni va hayotning barcha jihatlarini qamrab oladi.

O'zbek xalqi qadimdan dehqonchilik, chorchachilik va savdo-sotiq hamda hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Mana shu kabi kasb-hunarlar xalqning maqollariga ham singiganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, “**Uzum** olaman desang, uzun kes”, “Sakson kun sanoqda, to'qson kun- **tovoqda**”, “Tuzoq qo'ydim **piyozga**, ilinsa-shu yozga, ilinmasa yanagi yozga”,

Bog'ni boqsang bog' bo'lar,

Botmon dahsar **yog'** bo'lar.

Boqimsiz bog' tog' bo'lar,

Yurak-bag'ring dog' bo'lar” kabi maqollar orqali biz bevosita dehqonchilikning o'ziga xos xususiyatlarini, sir-sinoatlarini bilib olamiz. “Tuya ustida **qatiq** uyimas”, “**Piyozni** mard artsin, sabzini-nomard”, “Yetmagan **xamir** tandirda turmas”, “Tuzsiz **hamir** tandirda turmas”, Tuzsiz hamir tandirda turmas kabi maqollar orqali esa pazandachilikdagi ma'lum jihatlar haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Yana shunday maqollar borki, ular vositasida biz o'zbek xalqida qadimdan mavjud bo'lgan tabobat bilan bog'liq ma'lum bir usullarni ham ko'ra olamiz:

²⁰ Shomaqsudov Sh., Shorahemdov Sh. Hikmatnoma O'zbek maqollarining izohli lug'ati. Toshkent. 1990,67-bet

²¹ O'sha manba, 70-bet

“Non tiqilsa suvga bor, suv tiqilsa go’rga bor”, “Olma yeb og’rigandan, o’rik yeb o’lgan yaxshi”, “Kasalni mayiz emas, achchiq dori tuzatadi”, “Sarimsoq, sarimsoq yeganning tani sog’ ” kabilarni bunga misol qilib keltirish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o’rnida aytish joizki, o’zbek xalq maqollari qadimdan otabobolarimizning qanday turmush sharoitida yashaganligi, ularning kasb-kori, urf-odat va an’analaridan darak beruvchi nodir namunalar sifatida avloddan-avlodga o’tib kelayotgan madaniy manbalardir. Ular shu sababdan ham adabiyot va lingvokulturologiya fanida juda ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shomaqsudov Sh. , Shorahemdov Sh. Hikmatnoma O’zbek maqollarining izohli lug’ati. Toshkent. 1990
2. Mamatov A. Zamonaviy linvistika.-Toshkent. “Tafakkur avlodlari”, 2020
3. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent. “Fan va texnologiya”, 2009
4. Mamatov A.E.Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazealogik norma muammolari. – Toshkent, 1991.